

ТВОРЧЕСТВО САИДА АХМАДА: ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МЫШЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕКА

Рузмуродова Райхона

*Каракалпакский государственный университет
студентка 3 курса факультета узбекской филологии*

Аннотация: В данной статье творчество одного из выдающихся представителей узбекской литературы Саида Ахмада анализируется с литературоведческой точки зрения. Основным объектом исследования является художественное отражение в произведениях писателя человеческой психологии, социальной среды и проблем эпохи. В статье раскрываются характерные для прозы Саида Ахмада реалистическое изображение действительности, простой и выразительный язык, а также эстетическая функция юмора и сатиры. Кроме того, на научной основе оценивается место и литературное значение творчества писателя в развитии узбекской прозы.

Ключевые слова: узбекская проза, реализм, художественный образ, психология человека, литературоведение, символизм, герой, юмор, персонаж, сюжет.

THE CREATIVE WORKS OF SAID AHMAD: ARTISTIC THINKING AND THE HUMAN PROBLEM

Ruzmurodova Rayhona

*Karakalpak State University
3rd-year student of the Faculty of Uzbek Philology*

Abstract: This article analyzes the creative works of Said Ahmad, one of the prominent representatives of Uzbek literature, from a literary studies perspective. The main object of the research is the artistic representation of human psychology, the social environment, and the problems of the era in the writer's works. The article highlights the realistic depiction characteristic of Said Ahmad's prose, the simple and fluent language, as well as the aesthetic function of humor and satire. In addition, the place and literary significance of the writer's творчество in the development of Uzbek prose are scientifically evaluated.

Keywords: Uzbek prose, realism, artistic image, human psychology, literary studies, symbolism, hero, humor, character, plot.

SAID AHMAD IJODI: BADIY TAFAKKUR VA INSON MUAMMOSI**Ruzmurodova Rayhona***Qoraqalpoq davlat universiteti**O‘zbek filologiyasi fakulteti 3- bosqich talabasi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri Said Ahmad ijodi adabiyotshunoslik nuqtaiy nazaridan tahlil qilinadi. Adib asarlarida inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va davr muammolarining badiiy aks ettirilishi asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada Said Ahmad nasriga xos realistik tasvir, sodda va ravon til, yumor hamda satiraning estetik vazifasi yoritiladi. Shuningdek, yozuvchi ijodining o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni va adabiyot ahamiyati ilmiy asosda baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek nasri, realizim, badiiy obraz, inson ruhiyati, adabiyotshunoslik, ramziyil, qahramon, yumor, personaj, sujet.*

KIRISH

XX asr o‘zbek adabiyoti murakkab tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chanbarchas bog‘liq holda rivojlandi. Bu davr adabiyotida inson, jamiyat va shaxs masalasi markaziy mavzuga aylandi. Ana shunday adiblar safida Said Ahmad ijodi alohida ahamyat kasb etdi. Uning asarlari hayotiyliigi, badiiy soddaligi va chuqur mazmuni bilan o‘zbek nasrida muhim o‘rin egallaydi. Uning ko‘plab yuqori badiiy mahorat ila yozilgan novella va hajviy hikoyalari milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Mislsiz xizmatlari uchun Said Ahmad “Buyuk xizmatlari uchun” va “Do‘stlik” ordenlari hamda “O‘zbekiston qahramoni”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” sharafli unvonlariga sazovor bo‘lgan.

ASOSIY QISIM

Said Ahmad 1920-yil Toshkentda ishchilar oilasida tug‘ilgan. U mehnat faoliyatini barvaqt boshlagan. 30-yil boshlaridayoq yosh jurnalist va ijodkor sifatida qishloq xo‘jaligi kollektivida va aholining savodsizligiga barham berishda faol ishtirok etgan. Katta xalq qurilishlarida muxbir bo‘lib ishlagan.

Ottizinchi yil boshlari, qirqinchi yil oxirlarida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining sahifalarida, “Mushtum” va “Sharq Yulduzi” jurnallarida o‘zining ocherk va hikoyalari chop etadi, radioda ham faol ishlaydi.[3]

30-yil oxirlaridan Said Ahmad badiiy nasr janrida samarali ijod qiladi, uning birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq” 1940 yil nashr etilgan. “Jimjitlik” romanida turg‘unlik davri illatlari fosh etiladi. 40-yillar uning “Er yurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etilgan.

50-yillar boshi, 60-yillar oxirida Said Ahmadning ijodi yanada yuqoriroq badiiy darajaga ko‘tariladi. U o‘nlab lirik va hajviy hikoyalar yaratib, o‘zbek adabiyotining

hikoya janri rivojida muayyan o'ringa ega bo'lgan. Bu yillar Said Ahmad ijodida yangi mavzu alohida e'tiborga loyiq - bu Markaziy Farg'onaning bo'z yerlarini o'zlashtiruvchilar hayotining aks etish mavzusidir. Bu hikoyalar "Cho'l burguti", "Cho'l shamollari" va "Tunlar va cho'llar" kabi to'plamlardan joy olgan bo'lib, bizning ko'pmillatli adabiyotimizdagi "qishloq nasri"ning o'ziga xos timsollari hisoblanadi.

Ijodining asosiy xususiyatlari: Said Ahmad asarlarida quyidagi jihatlarlar yetakchi hisoblanadi:

- 1) Inson ruhiy kechinmalarining real tasviri;
- 2) Oddiy odamlar hayotiga e'tibor;
- 3) Yumor satiraning tabiiy qo'llanishi;
- 4) Milliy qadriyatlar va axloqiy masalalarning yoritilishi.

Said Ahmad o'zini nasrining yirik janrlaridan ham sinab ko'rgan. "Hukum" qissasini yozgan. Uning "Ufq" trilogiyasini yozganda butun qalbini qo'shib yozadi. Ushbu trilogiya yozuvchi ijodida alohida o'rin tutadi-zamonaviy o'zbek nasridagi yirik hodisa.

Said Ahmad ushbu romanlar ustida 15 yil mehnat qilgan. Ular yozuvchining butun hayot yo'lini qamrab olgan- urushdan oldingi, urish davridagi va urishdan keyingi yillarni. Roman asosida chin tarixiy voqealar yotadi. Katta Farg'ona kanalining qurilishi va Markaziy Farg'ona kanalining egallanishi.[4] Ushbu tarixiy hodisalar asosida yozuvchi xalqning ma'naviy dunyosini ochib, qadimdan ularga xos mehnatkashlikni, to'g'ri so'zlik jasorat – xalqaro ittifoqdoshlik va jamoaviylikni ko'rsatib beradi. Bular esa inson qalbiga xos olijanob va himmat manbalari sanaladi.

Said Ahmad ijodida inson shaxsi markaziy o'rinlarni egallaydi. Yozuvchi qahramonlari ko'pincha oddiy mehnatkashlar, ziyolilar yoki jamiyatdagi oddiy insonlardir. Ular orqali adib insonning ichki kechinmalari, axloqiy tanlovlarini va ruhiy iztiroblarini ochib beradi. Bu jihat Said Ahmad nasrining psixologik chuqurligini belgilaydi. Adibning badiiy uslubi soddalik va tabiiylikka asoslangan. Murakkab falsafiy g'oyalar oddiy va tushunarli ifodalar orqali beriladi. Said Ahmad yumor va satiradan mohirona foydalanib, jamiyatdagi kamchiliklarni yumshoq kulgi orqali fosh etadi. Bu esa uning asarlarini nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamyatga ham ega qiladi.

Adabiyotshunoslikda Said Ahmad ijodi realistik nasr an'analarning davomchisi sifatida baholanadi. U o'zbek adabiyotida inson va jamiyat munosabatini real voqelik asosida badiiy talqin qilgan adibdir. Yozuvchining asarlari til, uslub va mazmun jihatdan adabiy jarayonni boyitgan muhim manba hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad ijodi o'zbek adabiyotida badiiy tafakkur va inson muammosini yuksak badiiy darajada aks ettirilgan muhim adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Adib asarlarida inson shaxsi, uning ruxiy kechinmalari, axloqiy tanlovi va jamiyat bilan munosabati markaziy o'ringa qo'yiladi. Bu holat Said Ahmad

nasrining g'oyaviy -badiiy asosini belgilab, uni o'zbek realistik adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri sifatida e'tirof etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Qosimov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Rahimov S. Hozirgi o'zbek nasri muammolari. – Toshkent: Universitet, 2001.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
6. Said Ahmad. Ufq (Trilogiya). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
7. Sayfullayeva D. Badiiy matn va adabiy tahlil masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Umurqulov B. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.